

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.M.Qandov</b>	
Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
<b>U.J.Mansurov</b>	
Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
<b>M.M.Alimova</b>	
1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi .....	312
<b>J.Museyibzada</b>	
Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
<b>A.A.Azizov</b>	
Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida) .....	324
<b>A.T.Ahmedov</b>	
Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari .....	328
<b>D.A.Urinbayeva</b>	
Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
<b>T.Ch.Xoliyarov</b>	
Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi .....	340
<b>X.X.Mamajonov</b>	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniyalar imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar .....	347
<b>I.S.Yusupov</b>	
Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi .....	351
<b>F.K.Jumanazarova</b>	
Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
<b>U.X.Gulmatov</b>	
O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni .....	359

---

ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>U.B.Matmurotova</b>	
Badii tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xhatish misolida.....	364
<b>Sh.A.Safarova</b>	
"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish .....	369
<b>D.I.Nazarova</b>	
Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar .....	374

---

TILSHUNOSLIK

<b>A.B.Uralov</b>	
Til sathlarida nomutanosiblik .....	381
<b>A.Sh.Muxamadiyev</b>	
Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
<b>Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova</b>	
Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida .....	393
<b>U.Sh.Turaeva</b>	
Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
<b>Y.T.Rakhmonkulova</b>	
A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages .....	401
<b>O.F.Turdaliyev</b>	
"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli .....	405
<b>M.O.Usarova</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari .....	413
<b>Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова</b>	
Смыковые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер .....	417
<b>B.Q.Nomonov</b>	
Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



УО'К: 8.81.81-23

**“GULISTON” ASARIDA SOMATIK BIRLIKLARNING QO‘SHMA FE’L YASALISHIDAGI  
ROLI**

**РОЛЬ СОМАТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ОБРАЗОВАНИИ СЛОЖНЫХ ГЛАГОЛОВ В  
ПРОИЗВЕДЕНИИ «ГУЛИСТАН»**

**THE ROLE OF SOMATIC UNITS IN THE FORMATION OF COMPOUND VERBS IN THE  
WORK "GULISTAN"**

Turdaliyev Olimjon Fayzullajon o‘g‘li   
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

“Guliston” asarida ot+yordamchi fe'l modelidagi qo'shma fe'llarda ism qism sifatida aniq va mavhum otlar, tub va yasama otlar ham kelishi kuzatiladi. Asarda aniq otlar sirasiga kiruvchi somatik birliliklar ishtirokida yasalgan qo'shma fe'lllar ham ko'r uchraydi. Ular bilan hosil qilingan qo'shma fe'llarda aksariyat holatlarda ism qism vazifasida kelgan somatik birlilik o'z leksik ma'nosini yo'qotadi. Somatik birliliklar ishtirokida yasalgan qo'shma fe'llarni ichki guruhlarga ajratish, statistik tahlilini amalga oshirish ularning qo'shma fe'lllar yasalishidagi o'mini belgilab beradi. “Somatik birlilik+yordamchi fe'l” modeli asosida yasalgan qo'shma fe'llarning aksariyatida umumiyl ma'no somatik birlilik ifoda etgan a'zo yordamida amalga oshiriladigan ish-harakat yoki holatdan kelib chiqadi. Mazkur fe'llarni semantik jihatdan tahlil qilish ularning ma'noviy strukturasida somatik birlilik ifoda etadigan ma'nolarning qay darajada ishtirok etishini ko'rsatib beradi.

**Аннотация**

В произведении «Гулистан» отмечается, что конкретные и отвлечённые существительные, непроизводные и производные существительные выступают как существительные в составных глаголах модели существительное+вспомогательный глагол. В работе встречается много сложных глаголов, образованных при участии соматических единиц, принадлежащих к ряду конкретных существительных. В образованных с ними сложных глаголах в большинстве случаев соматическая единица, выступающая в составе существительного, теряет лексическое значение. Разделение сложных глаголов, произведенное с участием соматических единиц, на внутренние группы, проведение статистического анализа определяет их место в образовании сложных глаголов. В большинстве сложных глаголов, составленных по модели «соматическая единица+вспомогательный глагол», общее значение извлекается из действия или состояния, совершаемого с помощью части, представляемой соматической единицей. Семантический анализ этих глаголов показывает, насколько значения, выраженные соматической единицей, включены в их семантическую структуру.

**Abstract**

In the work “Guliston” it is observed that concrete and abstract nouns, basic and artificial nouns appear as nouns in compound verbs of the noun+auxiliary verb model. In the work, there are many compound verbs formed with the participation of somatic units belonging to the series of specific nouns. In the compound verbs formed with them, in most cases, the somatic unit, which acts as a part of the noun, loses its lexical meaning. Separation of compound verbs made with the participation of somatic units into internal groups, carrying out a statistical analysis determines their place in the formation of compound verbs. In most of the compound verbs made on the basis of the "somatic unit+auxiliary verb" model, the common meaning is derived from the action or state performed with the help of the part represented by the somatic unit. The semantic analysis of these verbs shows to what extent the meanings expressed by the somatic unit are involved in their semantic structure.

**Kalit so'zlar:** somatik birlilik, qo'shma fe'l, yordamchi fe'l, sar, pā, dast, čeşm.

**Ключевые слова:** соматическая единица, сложный глагол, вспомогательный глагол, сар, пā, даст, чешм.

**Key words:** somatic unit, compound verb, auxiliary verb, sar, pā, dast, čeşm.

## KIRISH

Fors tili va uning yozma yodgorliklari ham dunyo olimlarining diqqatini o'ziga qaratgan madaniy meros hisoblanadi. Bu tilda ijod qilgan shoirlar va mutafakkirlar tomonidan qoldirilgan asarlar o'rta asrlardanoq dunyoning turli tillariga tarjima qilingan. Sa'diy Sheraziyning "Guliston" asari ana shunday asarlardandir. Didaktik ruhda yozilgan bu asar XVII asrdayoq Yevropa tillariga tarjima qilingan. Xususan, rus tiliga bir necha bor o'girilgan. Rus eronshunoslari tomonidan fors tilining turli grammatik masalalariga bag'ishlangan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari va tekshirishlar amalga oshirilgan. Fe'l boshqa barcha so'z turkumlariga nisbatan eng amaliy, eng murakkab, ayni vaqtida semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriyadir. A.Quronbekov tomonidan "Fors tilidagi fe'llarda so'z yasalishi Eron tilshunosligining eng chigal va oxirigacha hal qilinmagan problemalaridan biri" ekanligi ta'kidlanadi. Agar qo'shma fe'llarni so'z birikmasi deb qarasak, unda bu so'z turkumiga kirmaydi, balki sintaktik kategoriyaga aylanadi. Agar bu qo'shma so'zlarning analitik shakli deb qarasak, bu qo'shma fe'lllar bir xil tipdagi birikmalar emas, bir qismi erkin birikmalar". [1, 91] Ushbu fikrlardan kelib chiqib, quyida qo'shma fe'llarning "somatik birlilik+fe'l" modeli asosida yasalgan turini tahvilga tortamiz, ularning struktur-semantik va morfologik xususiyatlarini yoritamiz.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Fors tili fe'l sistemasi yuzasidan eron tilshunoslari N.Alipur, P.Albo'rziy, A.A.Partav, E.Huvayniy, H.A.Givi, H.Anvari, P.N.Xonlariy, G.Arjang, Hayyompur, A.A.Faqihiy, A.Qarib, M.Mashkuhiddin, M.Muiyniyon, rus eronshunoslari Y.E.Bertels, L.S.Peysikov, Y.A.Rubinchik, A.F.Barishnikov, ingliz eronshunoslari D.C.Phillot, C.Nouri, R.Levy, turk tilshunosi M.Kanar kabi olimlar tomonidan bajarilgan ilmiy ishlari katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek eronshunoslari tomonidan fors tilidagi qo'shma fe'llar yuzasidan monografik ishlari amalga oshirilmagan. Faqatgina A.Quronbekov, X.Alimova, D.Ahmedova, V.Vahidov, Z.Arifjanov, N.Nurtdinov, H.Mirzahmedova, N.Ahmedjonova, D.Azimjonova, Z.Alimova, M.Omonov kabi olimlarning ilmiy ishlari qo'shma so'zlar, xususan, fe'l turkumi va qo'shma fe'llar bilan bog'liq ba'zi jihatlar o'rganilgan.

Mazkur mavzuning o'rganilishi o'zbek tilshunoslida ayrim maqolalar va ba'zi tadqiqotlarning kichik qismlarida umumiy xarakter va ba'zi misollar berish bilan cheklangan. Shu sababli fors tilidagi qo'shma fe'llar mavzusini o'rganish hozirgi vaqtda muhim hisoblanadi.

Mavzuni yoritishda morfologik, semantik va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

"Guliston" asarida somatik birliklar ishtirokida yasalgan qo'shma fe'llarni ism qism tananing qaysi a'zosini ifoda etishiga ko'ra quyidagi ichki guruhlarga ajratish mumkin:

**سر (Sar – bosh) so'zi ishtirok etuvchi "ot+yordamchi fe'l" modelli qo'shma fe'llar.**

X.Z.Alimova سر (sar-bosh) so'zining semantik strukturasida 9ta sema mavjudligi hamda ularning ichida "tananing bo'yindan yuqori qismi" semasi yetakchilik qilishini ko'rsatadi [2, 15]. Mazkur so'z qo'shma fe'llarda ism qism sifatida kelganda ham o'z ma'nosidan uzoqlashadi. "Guliston" asarida sar so'zi ishtirok etgan qo'shma fe'llarning 61 o'rinda qo'llangani aniqlandi. Quyidagi bayt tarkibida sar (bosh) so'zi qo'shma fe'l yasalishida eng faol ishlataladigan kardan (qilmoq) fe'l bilan ko'chma ma'nodagi qo'shma fe'l yasaganini kuzatish mumkin. Sar (bosh) va kardan (qilmoq) fe'l sar kardan – (so'zma-so'z bosh qilmoq) ochilmoq, yorib chiqmoq, boshlamoq, suhabat qurmoq) qo'shma fe'lining morfem tarkibiy qismi sifatida o'zining leksik ma'nosini tamoman yo'qotgan:

خذر کن ز دود درونهای ریش  
که ریش درون عاقبت سر گند

Xazar kon zi dud-e darunhā-ye riš

Ke riš-e darun āyebat **sar konad**.

**Mazmuni:** Qalbi xasta kishilarning ohidan o'zingni tortginki, oqibat bir kuni qalb yarasi yoriladi.

Quyidagi jumlada esa sar so'zining āmadan (kelmoq) fe'l bilan ko'chma ma'noli sar āmadan – (so'zma-so'z – bosh kelmoq) "komil bo'lmoq", "tugatmoq", "tamomlamoq", "vafot etmoq" kabi ma'nolarni ifoda etuvchi qo'shma fe'l yasaganini ko'rish mumkin:

یکی در صنعت کشتی گرفتن سر آمده بود.

Yeki dar san'at-e košti gereftan **sar āmade bud**. (G. 120-bet).

**Tarjiması:** Bir kishi kurash tushish san'atida komillikka erishgan edi.

## TILSHUNOSLIK

Quyidagi jumlada *sar so'zining nehādan* sodda fe'lili bilan hosil qilgan qo'shma fe'lini ikki o'rinda kuzatishimiz mumkin:

زې بىدە مرد سپاھى راتا سەر بنەد  
و گۈش زەز نەھى سەر بنەد در عالم.

*Zar bedeh mard-e sepâhirâ tâ sar benehad,*

*Wa garaš zar nadehi, sar benehad dar ālam* (G. 87-bet).

**Mazmuni:** Jon fido qilishlari uchun lashkarga zar (oltin) ber, va agar zar bermasang, tarqalib ketadi.

*Sar (bosh)* so'zi bilan yasalgan qo'shma fe'llarning semantikasida mazkur so'zning u yoki bu semasi asosiy planga chiqadi va qo'shma fe'lning umumiy hosila ma'nosida yetakchi sema maqomini xususiylashtiradi.

Yuqorida keltirilgan misollardan tashqari "Guliston"da quyidagi qo'shma fe'lllar uchraydi:

1. Sar+sodda fe'l: *Sar tâftan, sar āmadan, sar gereftan, sar bâxtan, sar kaşidan.*
2. Sar+prefiksli fe'l: *sar bar tâftan, sar bar āwardan, sar bar dâstan, sar bar gereftan.*
3. Sar+qo'shma fe'l: *sar bâz zadan, sar forud āwardan.*

**چشم (čeşm – ko'z) so'zi ishtirok etuvchi "ot+yordamchi fe'l modelli" qo'shma fe'llar.**

"Guliston" asarida 7 o'rinda čeşm so'zi ishtirok etgan, 5 o'rinda uning sinonimi *dide* so'zi ishtirok etgan qo'shma fe'llarning ishlatalishi kuzatiladi. "Dehxudo" lug'atida čeşm so'ziga quyidagicha izoh beriladi:

[چشم. جـ / جـ. [!] معروفست که عرب «عين» گویند. (برهان). ترجمه عین. (آندراج) آن جزء از بدن انسان و حیوان  
که بر بالای آن ابرو جا گرفته و آلت دیدنست. (فرهنگ نظام)

"Ma'lumki, arablar ayn deyishadi". (Burxon) "ayn"ning tarjimasi. (Onandroj). U inson va hayvon tanasining bir uzvi bo'lib, ko'rish a'zosidir, tepasida qosh joylashgan" [3, 138]. Mazkur so'z bilan hosil qilingan qo'shma fe'llar "Guliston" asarida boshqa somatik birliklarga nisbatan juda kam uchraydi. Asarni o'rganish davomida čeşm so'zi bilan yasalgan quyidagi qo'shma fe'llarga duch keldik:

هر آن کە تخم بدی کشت و چشم نىكى داشت  
دماغ بىيەدە پخت و خيال باطل بىت.

*Har ān ke toxm-e badi kešt wa čeşm-e niki dâşt*

*Demây-e bihode poxt wa xiyâl-e bâtel bast.*

**Mazmuni:** *Har kimki yomonlik ekip, yaxshilikni umid qiladigan bo'lsa, behuda fikr-u ahmoqona xayol qilibdi.*

Mazkur jumlada چشم (čeşm – ko'z) so'zi (dâstan – bor bo'imiq, ega bo'imiq) sodda fe'lili bilan ma'noviy jihatdan birikib, "umid qilmoq" ma'nosidagi qo'shma fe'lini yasagan. Ko'rinadiki, qo'shma fe'lning har ikki morfem qismi o'zining avvalgi leksik ma'nosini tamoman yo'qotgan. Umumiy hosila ma'no qo'shma fe'lini tashkil qiluvchi qismlarning ma'nosidan kelib chiqmaydi. Ko'rsatilgan fe'l asarning turli o'rinalarda bir necha marotaba qo'llangan va har o'rinda "umid qilmoq", "kutmoq" ma'nosini ifodalab kelgan.

Yuqorida keltirilgan misollardan tashqari "Guliston" asarida quyidagi qo'shma fe'lllar uchraydi: čeşm foru bastan, čeşm bar gereftan, čeşm puşidan, čeşm oftâdan.

*Dide so'zi ishtirokida: dide dar bastan, dide şekiftan, dide barham bastan, dide bastan, dide bar kardan.*

**زبان (zabân – til) so'zi ishtirok etuvchi "ot+yordamchi fe'l" modelli qo'shma fe'llar.**

Mazkur so'z bilan yasalgan qo'shma fe'llar ham asarda 11 o'rinda uchraydi. "Guliston" asarini lisoniy tekshirish davomida bir qo'shma fe'lning ikki o'rinda ikki xil morfologik shaklda va ikki xil sintaktik funksiyada qo'llangan kuzatildi. Quyidagi jumlada kontakt holatda hozirgi kelasi zamondagi kesim vazifasida kelgan:

كە فردا چو پېيك اجل در رسد  
بحكم ضرورت زبان در کشى.

*Ke fardâ ču payk-e ajal dar rasad,*

*Behokm-e zarurat zabân dar kaşı* (G. 23-bet).

**Mazmuni:** *Ertaga ajal o'qi yetib kelgan paytda zarurat hukmi bilan tilingni tiyib turasan.*

Quyidagi jumlada esa زبان در کشیدن (zabân dar kaşidan) fe'lining distant holatda, infinitiv shaklda, to'ldiruvchi vazifasida kelishi kuzatiladi:

فی الجمله زبان از مکالمه او در کشیدن قوت نداشت ..

*Filjomle, zabān az mokāleme-ye u dar kašidan youwat nadāštam.* (G. 26-bet).

**Tarjimasi:** Xullas, uning suhbatidan til tiyishga quvvat topolmadim.

Ba'zi o'rnlarda zabān so'zi ishtirokida yasalgan qo'shma so'zlearning ham qo'shma fe'lida ism qism funksiyasida kelishi uchraydi:

دريغ اين бнде ба حسن و شмайлий ке дард زبان дрази и би адбий нокрд.

*Dariy in bande, bā hosn wa šamāyeli ke dārad agar zabān derāzi wa biadabi nakard.*

**Tarjimasi:** Afsus, bu qul shunday husni-yu, kelishgan qomatiga yarasha beadablik va betgachoparlik qilmaganda.

Quyidagi jumlada zabān bastan fe'l shaxssiz gaplarning asosiy fe'l maqomida infinitiv shaklda kelishi kuzatiladi:

Шайд пис кар хошиштун беншистен  
лиken нтowan زبان مرдум быстен.

*Šāyad pas-e kār-e xištan benešastan*

*Likan natawān zabān-e mardom bastan.*

**Mazmuni:** O'z ishining ortidan ketish mumkin, ya'ni hech kim bilan ishi bo'lmashdan yurish mumkin, lekin odamlarning o'g'zini yopib bo'lmaydi.

**(ruy – yuz) so'zi ishtirok etuvchi qo'shma fe'llar.** "Guliston" asarida (ruy) so'zi ishtirok etgan qo'shma fe'llar 23 o'rinda uchraydi. Ushbu so'z bilan yasalgan qo'shma fe'llarning matnda aksariyat o'rnlarda distant holatda kelishi kuzatiladi. Shuningdek, asarni o'rganish davomida shu narsa ayonlashdiki, ruy+yordamchi fe'l tipidagi qo'shma fe'llar distant holatda kelganda az predlogli to'ldiruvchilarni boshqarib kelgan:

*Ruy gardānidan – 1. Yuz o'girmoq. 2. Tark etmoq.* [4, 734]

روى از محاوره او گرдандин مرот ندانستم که يار موافق بود و ارادت صادق.

**Ruy az mahāware-ye u gardānidan moruwwat nadānestamke, yār-e mowāfey bud wa erādat-e sādey.**

**Tarjimasi:** Uning suhbatini rad etishni muruvvat bilmadimki, sodiq va vafoli do'st edi.

*Ruy tāftan – 1. Xo'mraymoq. 2. Yuz o'girmoq. 3. Umid uzmoq.* [4, 734]

از طبیعت بزرگان بدیع است روی از مصاحب مسکن تافن و فایده و برکت دریغ داشتن...

**Az tabiat-e bozorgān badiye ast ruy az mosāhebat-e meskinān tāftan wa fāyde wa barakat dariy dāštan.** (G. 148-bet).

**Tarjimasi:** Miskinlarning suhbatidan yuz o'girish va ulardan foyda va barakatni darig' tutish ulug'larning tabiatidan uzoqdur.

Aksariyat holatlarda (ruy) so'zi bilan yasalgan qo'shma fe'llarda mazkur so'z o'zining leksik ma'nosidan uzoqlashadi:

شنیدم که ملک را در آن قرب دشمنی صعب روی نمود.

*Šenidam ke, malekrā dar ān yorob došman-e sa'b ruy namud.* (G. 54-bet).

**Tarjimasi:** Eshidimki, o'sha yaqinda podshohga bir kuchli dushman yuz ko'rsatdi.

Yuqoridagi jumla tarkibida kelgan (ruy namudan – (so'zma-so'z yuz ko'rsatmoq) ko'rinoq, paydo bo'imoq) qo'shma fe'lida ham ism va fe'l qism leksik ma'nosini qisman yo'qotgan.

Quyidagi jumla tarkibida esa (nehādan – qo'ymoq) fe'l bilan qo'shma fe'l yasaganini ko'rish mumkin:

لاجرم دشمنی صعب روی نهاد همه پشت  $\Phi$  يکی از پادشاهان پیشین در رعایت مملکت سستی کردی و لشکر به سختی داشتی بدادند.

*Yeki az pādšāhān-e pišin dar reāyat-e mamlekati sosti kardi wa laškar be saxti dāšti lājaram došmani sa'b ruy nehād, hame pošt dādand.* (G. 85-bet).

**Tarjimasi:** Burungi podshohlardan biri mamlakatni boshqarishda loqaydlik qilar va lashkarni qahatchilikda tutar edi, oxir oqibat bir ulug' dushman yuz ko'rsatdi va hamma podshohga orqa o'girdi.

روی (ruy) so'zining bir necha komponentlardan iborat qo'shma fe'llarda ism qism vazifasida kelish holati ham uchraydi. Bunday qo'shma fe'llarni murakkab qolipdag'i so'zlar sifatida ta'riflash mumkin. "Guliston" asarida aksariyat o'rnlarda murakkab qolipli qo'shma fe'llarning birinchi komponenti distant holatda kelishi kuzatiladi:

ملک روی از بن سخن در هم آورد.

## TILSHUNOSLIK

*Malek ruy az in soxan dar ham āward.* (G. 49-bet).

**Tarjimasi:** *Podsho bu so'zdan yuzini burishtirdi.*

Quydagи jumlada esa qо'shma fe'lning odatiy kontakt holatda kelishini ko'rishimiz mumkin: چون لشکر از هر دو طرف روی در هم آوردند اول کسی که به میدان در آمد این پسر بود.

*Čun laškar az har do taraf ruy dar ham āwardand awwal kasi ke be meydān dar āmad, in pesar bud.* (G. 54-bet).

**Tarjimasi:** *Har ikki tomondan lashkar yuz ko'rsatganda, jang maydoniga kirgan birinchi odam shu o'g'il bo'ldi.*

Mazkur jumla tarkibidagi (ruy dar ham āwardan) qо'shma fe'li morfem tarkibi yuqoridagi jumla tarkibida kelgan qо'shma fe'l bilan bir xil bo'lsa ham, ma'noviy jihatdan farqlanadi. Shunga ko'ra mazkur fe'llarni omonim sifatida baholash mumkin.

Quyidagi jumlada (ruy dar ham āwardan) fe'liga sinonim bo'la oladigan qо'shma fe'l keltirilgan. Ikki qо'shma fe'lni morfem tarkibi jihatidan predloglar farqlab turadi: روى بـ هـ = روى در هـ آوردن

Grammatik ma'nosiga ko'ra در (dar) predlogi o'zbek tilidagi o'rinn-payt kelishigiga, بـ (be) predlogi esa jo'nalish kelishigi bajaratigan funksiyaga to'g'ri keladi. Shunday bo'lsa ham predloglarning almashinuvi qо'shma fe'lning umumiyy hosila ma'nosiga ta'sir o'tkazmaydi:

ملک روی ازین سخن بـ هـ آوردن.

*Pādšāh ruy az in soxan beham āward.* (G.104-bet).

**Tarjimasi:** *Podshoh bu so'zdan yuzini burishtirdi.*

(ruy) so'zi ism qism bo'lib kelgan qо'shma fe'llarda mazkur so'zning ma'nosi qisman bo'lsa ham saqlanadi. Qо'shma fe'lning umumiyy hosila ma'nosida yordamchi fe'lga nisbatan ko'proq ulushni egallaydi ya'ni asosiy semantik yuk ism qismga tushadi.

Quyidagi jumlada esa ruy (yuz) so'zi ishtirok etgan murakkab qoliqli qо'shma fe'lni ko'rish mumkin. Yuqoridagi uch jumlada fe'l qism vazifasini āwardan (*keltirmoq*) fe'l bajargan bo'lsa, mazkur gapda kašidan (*tortmoq, chekmoq*) sodda fe'l bajargan.

حاکم از گفتن او برنجید و روی از نصیحت در هـ کشید و بـ هـ التفات نکرد.

*Hākem az goftan-e u beranjid wa ruy az nasihat dar ham kašid wa baru eltefāt nakard.* (G. 119-bet).

**Tarjimasi:** *Hokim uning so'zlaridan ranjidi va uning nasihatdan yuzini burishtirdi va unga iltifot qilmadi.*

دست (dast – qo'l) **so'zi ishtirok etuvchi qо'shma fe'llar.** "Guliston"da mazkur so'z ishtirok etgan qо'shma fe'llar ham ko'p uchraydi. Ularning 63 o'rinda ishlatalishi kuzatiladi. Dast+yordamchi fe'l tipidagi qо'shma fe'llarning aksariyati semantikasida shu a'zo bilan bajariladigan harakat semasi anglashiladi. Grammatik jihatdan esa ularning distant va kontakt holatda kelishi kuzatiladi. Distant holatda dast so'zi o'zidan keyin kelgan leksik birliklar bilan izofasiz bog'lanadi:

پـ هـ در يافت و دست از طعام کشید.

*Pesar dar yāft wa dast az taām kašid.*

**Tarjimasi:** *O'g'il tushundi va taomdan qo'lini tortdi.*

دست (dast – qo'l) so'zi bilan yasalgan qо'shma fe'llarning ba'zi o'rnlarda infinitiv shaklda kelishi ham kuzatiladi. Mazkur holatda u otga xos xarakter namoyon qilib, otga xos sintaktik vazifalarda keladi:

چو دارند گنج از سپاهی در بـ هـ در بـ هـ آیدش دست بردن به تـ هـ .

*Ču dārand ganj az sepāhi dariy,*

*Dariy āyadaš dast bordan be tiy.*

**Mazmuni:** *Agar askardan zarni darig' tutsalar, askar ham shamshirga qo'l urishdan o'zini tortadi.*

Dast (qo'l) so'zi bilan yasalgan qо'shma fe'llarning ism va fe'l qismlari ba'zi o'rnlarda almashgan holatda kelishi ham uchraydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu holat she'riy matnlarda vazn va ritm talabi bilan yuzaga keladi. Ushbu xususiyat ham qо'shma fe'llarni boshqa so'z turkum qо'shma so'zlaridan farqlanishiga sabab bo'luvchi omillardan biri sanaladi:

نترسـ آـ کـ هـ بـ هـ افتادـگـان بـ هـ خـ شـ اـيدـ .  
کـ هـ گـ زـ پـ هـ در آـيدـ کـ هـ شـ نـ گـ يـ دـ سـ .

Natarsad ān ke bar oftādegān nabaxšāyad  
Ke gar zi pāy dar āyad kasaš **nagirad dast.**

**Mazmuni:** Bechoralarga rahm qilmaganidan qo'rqmaydimiki, gar yiqiladigan bo'lsa, hech kim qo'lidan tutmasa.

Quyidagi she'riy matnda “dast šostan” (“voz kechmoq”). So'zma-so'z “qo'l yuvmoq”) fe'lida yordamchi fe'l qism misra boshida, ism qism esa misra oxirida kelishi kuzatiladi:

پشوی ای خرдمند از آن دوست  
که با دشمنانت بود هم نشست.

**Beşuy**, ey xeradmand, az ān dust **dast**

Ke bā došmanānat buwad hamnešast. (G. 525-bet).

**Mazmuni:** Ey ogil inson, dushmanlaring bilan suhabbatdosh bo'lgan do'stdan voz kech.

Ba'zi o'rirlarda dast (qo'l) so'zi bilan yasalgan qo'shma fe'llarda ism qism ham, fe'l qism ham o'z ma'nosini tamoman yo'qtadi. Qo'shma fe'l ko'chma ma'no ifodalaydi:

گفت: ای پادشاه روی زمین! به زور آوری بر من دست نیافت بلکه مرا از علم کشتی دقیقه‌ای مانده بود و همه عمر از من دریغ همی‌داشت امروز بدان دقیقه بر من غالب آمد.

Goft: “Ey pādšāh-e ruy-e zamin! Be zurāwari bar man **dast nayāft** balke marā az elm-e košti dayiye-i mānde bud wa hame omr az man dariy hami dāšt. Emruz bedān dayiye-i bar man yāleb āmad”.

**Tarjimasi:** Dedi: “Ey yer yuzining podshohi! Kuchda u mendan g'olib chiqmadi, balki menda kurash ilmida bir usul qolgan edi va uni butun umr mendan darig' tutgan. Bugun o'sha usul bilan ustimidan g'alaba qildi”.

Yuqorida keltirilgan jumla tarkibidagi دست يافتن (dast yāftan –so'zma so'z “qo'l topmoq”) “zafar quchmoq”, “g'alaba qilmoq” ma'nolarini anglatadi. Ma'noviy jihatdan (yāleb āmadan – g'olib kelmoq) fe'l bilan sinonimik qatorni hosil qiladi. Y.A.Rubinchik taklif qilgan semantik tasnifga ko'ra qo'shma fe'lni tashkil etuvchi qismlarning har ikkisi o'zining leksik ma'nosini to'liq yo'qotsa va qo'shma fe'lning ma'nosini qismlarning ma'nosidan kelib chiqamasa, bunday fe'llar modellashmagan qo'shma fe'llarning motivlashmagan ma'noli [5, 160] guruhiга kiritiladi.

Ushbu fikrlarga tayangan holda دست يافتن (dast yāftan) fe'lini ham shu guruhga kiritish mumkin.

پای (pāy – oyoq) so'zi ishtirok etuvchi qo'shma fe'llar. “Guliston” asarida somatik birliklar sirasiga kiruvchi پای (pāy – oyoq) so'zi qatnashgan qo'shma fe'llar nisbatan kam uchraydi. Ularni yetti o'rinda uchratish mumkin.

Aksariyat o'rirlarda pā(y) so'zi ishtirok etgan qo'shma fe'llarning morfem qismlari o'z leksik ma'nosini yo'qotadi, ya'ni motivlashmagan ma'noli qo'shma fe'llar yasaladi. Quyidagi jumla tarkibida kelgan پای گرفتن (pāy gereftan – (so'zma-so'z “oyoq olmoq”, “oyoq tutmoq”) fe'lining lug'atlarda “rivojlanmoq”, “kuchaymoq”, “mustahkam bo'lmoq” kabi ma'nolari beriladi. [3, 254]

درختى كە اكىنۇن گىرفتە است پاى  
بە نىروى مردى بىرآيد ز جاي.

**Deraxti ke aknun gerefte ast pāy**

Be niru-ye mardi bar āyad zi jāy. (G. 58-bet).

**Mazmuni:** Yangi tomir tutgan daraxt bir kishining kuchi bilan joyidan chiqadi.

Shuningdek pāy so'zining “predlog+ism+yordamchi fe'l” modelidagi qo'shma fe'llar tarkibida ham kelishi kuzatiladi:

مرد بى توشه كە افتاد از پاى  
بر كىربند او چە زر چە خز؟!

**Mard-e bituše ke oftād az pāy**

Bar kamarband-e u če zar če xazaf. (G. 264-bet).

**Mazmuni:** Yo'l xaltasiz holdan toygan odamning belbog'ida oltin bo'ldi nima-yu, sofol parchasi bo'ldi nima?

Yuqoridagi misollardan tashqari “Guliston” asarida pāy so'zi ishtirokida yasalgan quyidagi qo'shma fe'llarni uchratildi: Pāy dāstan, pāy kašidan, pāy nehādan.

دل (del) so'zi so'zi ishtirok etuvchi qo'shma fe'llar. Qo'shma fe'llarda ism qism vazifasida kelganda, asosan, “ko'ngil”, “qalb” ma'nosini ifodalab keladi. Mazkur so'z ham qo'shma fe'llarning yasalishida boshqa somatik birliklar sar va dast so'zlari singari faol hisoblanadi. “Guliston” asari

## TILSHUNOSLIK

matnini tahlil qilish davomida mazkur so'z ishtirok etgan qo'shma fe'llarning o'ttiz ikki o'rinda kelganligi aniqlandi. Mazkur so'zning asarda *kašdan*, *dādan*, *gerefstan*, *bastan*, *robudan*, *bar dāstan*, *nehādan*, *feriftan* kabi sodda fe'llar bilan birikib qo'shma fe'llar yasaganini ko'rish mumkin:

در چشم من آمد آن سهی سرو بلند  
بربود دلم ز دست و در پای فگند  
این دیده شوخ می کشد دل بکمند  
خواهی که بکس دل ندهی دیده ببند.

*Dar češm-e man āmad ān sihi sarw-e boland,*

**Berobud delam** zi dast wa dar pāy fegand.

*In dide-ye šux mikašad del bekamand,*

*Xāhi ke bekas del nadehi dide beband.* (G.391-bet).

**Mazmuni:** *Ul sarvqomat ko'zimning oldida ko'rindi-yu, ko'nglimni o'g'irladi va oyoqqa ishq bandini soldi. Bu beparvo sho'x ko'zlar esa ishq zanjiriga mutbalo qiladi. Agar hech kimsaga ko'ngil bermaslikni istasang, ko'zingni yumib ol.*

Quyidagi baytda esa "del" so'zining "bastan" sodda fe'l hamda "bar dāstan" prefiksli fe'l bilan qo'shma fe'l yasagani kuzatiladi. Ikki qo'shma fe'l sematik jihatdan zid ma'noli hisoblanadi:

نباید بستن اندر چیز و کس دل  
که دل بر داشتن کاریست مشکل

*Nabāyad bastan andar čiz wa kas del*

**Ke del bar dāstan kārist moškel.** (G. 381-bet).

**Mazmuni:** *Biror bir narsaga yoki kimsaga ko'ngil bog'lash kerak emas, chunki keyin ko'ngil uzish mushkul ishdir.*

Yuqorida keltirilgan jumlada *del bastan* va *del bar dāstan* qo'shma fe'llarining har ikkisi ham infinitiv shaklda kelgan. Shuningdek, *del bastan* qo'shma fe'lining ism va yordamchi fe'l qismlari o'rni almashib distant holatda kelgan. Yuqoridagi misollardan ko'rindadiki, *del* so'zi ishtirokida yasalgan qo'shma fe'llarning har ikki komponenti aksariyat o'rinnlarda ko'chma ma'noda keladi. Yuqorida keltirilgan somatik birliliklardan tashqari bir o'rinda (کف (kaf – kaft) so'zi bilan (be kaf āwardan – qo'lga kiritmoq), bir o'rinda (bar – ko'krak) so'zi bilan (dar bar kardan – kiymoq) qo'shma fe'l yasalishi kuzatiladi.

## NATIJA VA MUHOKAMALAR

"Guliston" asaridagi qo'shma fe'llarning lisoniy va statistik tadqiqi bo'yicha quyidagi natijalar olindi.

1-jadval

T/r	Somatizm	Qo'shma fe'l yasalishidagi ishtiroki
1	Dast (qo'l)	63 o'rinda
2	Sar (bosh)	61 o'rinda
3	Del (yurak)	32 o'rinda
4	Ru (yuz)	23 o'rinda
5	Zabān (til)	11 o'rinda
6	Pā (oyoq)	7 o'rinda
7	Češm (ko'z)	7 o'rinda
8	Dide (ko'z)	5 o'rinda
9	Kaf (kaft)	1 o'rinda
10	Bar (ko'krak)	1 o'rinda

### Somatizmlarning "Guliston" asarida qo'shma fe'l yasalishidagi ulu



Asarda 211 o'rinda somatik birliklar ishtirokida yasalgan qo'shma fe'llarning qo'llanilishi kuzatiladi. Bu asarda keltirilgan jami qo'shma fe'llarning 10.9 foizini tashkil qiladi.

#### XULOSA

Yuqorida keltirilgan misollar va ularning tahlillaridan ko'rindaniki, somatik birliklar ishtirokida yasalgan qo'shma fe'llarning aksariyatida umumiy hosila ma'no qismlarning ko'chma ma'nolari yig'indisi asosiga quriladi. Mazkur guruhga kiruvchi fe'llarda ism qism o'zining ma'nosini saqlaydi, fe'l qismning ma'nosni butunlay yo'qotiladi yoki o'zgarishga uchraydi. Lingvostatistik tahlillar qo'shma fe'l yasalishida sar (bosh) va dast (qo'l), del (yurak), ru (yuz) so'zlarining faol, zabān (til), pā (oyoq), čeşm (ko'z), dide (ko'z) so'zlarining o'rta, bar (ko'krak) va kaf (kaft) so'zlarining nofaol ekanligini ko'rsatdi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent: TDSHU, 2009. – 98 b.
2. Алимова Х.З. Дарий тилида соматизмларнинг структур ва семантик таснифи. Диссертация автореферати. – Toshkent: – 2005. – 49 b.
3. ۱۶۰۶ علی اکبر دهخدا. لغت‌نامه دهخدا. جلد ششم. – تهران: دانشگاه تهران، ۱۹۹۸. – ص.
4. Рубинчик Ю.А. Персидско-русский словарь. Том 1. – Москва: Русский язык, 1983. – 801 с.
5. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского языка. – Москва, 1981. – 276 с.